



**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI ДИН ИШЛАРИ БЎЙИЧА ҚЎМИТАСИ  
РАИСИНИНГ БУЙРУҒИ**

2023 йил “12” июнь

21.А-сон

**Xarid komissiyasi to‘g‘risida Nizom hamda xarid komissiyasi tarkibini  
tasdiqlash haqida**

“Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta‘minlash hamda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarida xarid komissiyasining vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Din ishlari bo‘yicha qo‘mitada 2023-moliya yili uchun xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Xarid komissiyasi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Qo‘mita markaziy apparatida xarid qilish tartib-tamoyillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas‘ul etib Moliya-iqtisod bo‘limi bosh mutaxassisi (Sh. Xushvaqtov) belgilansin.
3. Xarid komissiyasi tomonidan “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizom talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlansin.
4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais v.v.b.

D. Maxsudov